

O’SPIRINLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING NAZARIY TAHLILI

ADPI Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
103-guruh talabasi Sayilova Shirinjon

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’spirinlik davrining psixologik xususiyatlari borasida, shuningdek his tuyg’u, rivojlanish xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumotlar berib o’tildi.

Kalit so’zlar: O’spirinlik, sevgi tuyg’usi, emotsiya, kasb tanlash, o’zini o’zi anglash, shaxs, sifat, taraqqiyot.

O’spirinlik davrida shaxs sifatlarini shakllanishi, o’zini o’zi anglash, baholash, tarbiyalash, axloqiy tushunchalarni shakllanishiga doir bilimlarga ega bo’ladi. O’spirinlik davrida shaxsning rivojlanishida bir qator o’zgarishlar sodir bo’ladi, bu albatta o’smirlik davridan keskin farq qiladi. Uning ijtimoiy faoliyati ko’pincha maktabdan tashqariga chiqadi va haqiqiy katta hayotga qadam bosishi boshlanadi. O’spirinlik davri 15-18 yoshgacha bo’lgan bolalarni qamrab olib, 8-10 sinf o’quvchilarini tashkil qiladi. O’spirinlik davrida yoshlarda ruhiy va jismoniy o’zgarishlar hosil bo’la boshlaydi. Bo’y o’sishi o’spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o’g’il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi. O’spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo’y, og’irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo’ladi. Shuningdek muskul kuchi va ishchanlik sezilarli darajada ortgan bo’ladi. Ko’krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, aysimon suyaklar qattiqlashadi, to’qimalar va a’zolarining shakllanishi va funksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda bu yoshda yurak vaqon tomirlarining rivojlanishida o’smirlarga xos bo’lgan notekisliklar endi tekislanadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretsiya bezlari bir me’yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining, xususan, miya rivojlanishidagi o’zgarishlar ma’lum bo’lib qoladi. Lekin, bu o’zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro’y beradi. (1.371)

O’spirinlik davrida ichki his tuyg’ular rivojlanib qarama-qarshi jins vakillari o’rtasida bir biriga nisbatan qiziqish paydo bo’ladi. Bu do’slikdan tashqari bo’lgan sevgi hissiyoti. Sevgi- bu shunday tuyg’uki, u bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan sof, pokiza, beg’ubor tuyg’usi hisoblanadi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir birlarini hurmat qilish, do’slik, o’zaro yordam, bir-birini tushunish kabi xislatlarni o’zlarida namoyon qiladilar. O’spirinlik davrida yigit va qizlar o’rtasidagi munosabatlar juda faollashgan bo’ladi. O’spirin qizlarda aralash do’slik ehtiyojlari kengayadi. Ular dugonalari bilan ham o’zaro teng bo’lgan boshqa jins vakillari bilan ham bermalol do’slik aloqalarini bir tekisda olib boradilar. O’spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga bog’liq;

Jinsiy yetilish.

Ishonadigan, suyanadigan har qanday nozik masalalar bo’yicha gaplashish mumkin bo’lgan do’stga ehtiyoj.

Bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib, inson ko’pincha o’zini yolg’iz his qilganida kuchli emotsional bog’liqlikka intiladi.

Tadqiqotlarning ko’rsatishich bunday tuyg’u kuchaygan shaklda birinchi bor ilk o’spirinlik davrida vujudga keladi. O’spirinlar yolg’iz bo’lishni istamaganligi uchun o’zlari faolravishda o’zaro yaqin muloqat, bir- birlari bilan intim munosabatni izlaydilar. Ba’zan o’spirinlar bu hislarga shunday berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutloqo unitib qo’yadilar.(2)

O’spirinlarning mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalaning unga munosabatlari ham o’zgaradi. Kattalar o’smirga ko’proq bola deb qarasarlar, ilk o’spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo’ladilar. Ilk o’spirinlar hayotda o’z o’rnini topishga intilish

anglagan holatida bo’la boshlaydilar. Ular hayotiy rejalarni amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va muhim bir kasbni egallay boshlaydilar.

Kasb tanlash haqida o’ylay boshlaydilar. Lekin shunga qaramay o’spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O’spirinlarda intellektning rivojlanishi - bilan birga hazil- mutoyiba hissining ham rivojlanishini ta’kidlash joiz. Sodda bolalarcha qiziquvchanlik, tafakkur jarayonidan ongli ravishda zavqlanish ham uchraydi. Shunga ko’ra har kim qobilyatiga yarasha kasb hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa yuqori yutuqlarga erishadi va o’z yurtiga katta hissa qo’shgan hisoblanadi. O’spirinlar u yoki bu kasbni o’z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat’iylik, o’zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy xislatlarga ega bo’lishlari kerak.

Yuqori sinfga o’tgan o’spirinlar psixologiyasining o’ziga xosligi shundaki, ular hozirgi vaqti, buguni va ertasini rejalar asosida yashaydilar. Ana shu davrga kelib o’spirinlar turli kasblarga qiziqqa boshlaydilar. O’g’il bolalar erkaklarga xos bo’lgan kasblarni, qiz bolalar ayollarga xos bo’lgan kasb vanarlarni egallashni reja qiladilar. Bunda faqat maktabda ustozlari qanday kasb tanlashlari uchun etiborliroq bo’lgan holda ularga maslahat berishlari zarur. Ular tanlagan kasb va hunarning yaxshi va yomon taraflarini aytib berishlari zarur. Oilada esa albatta ota ona katta ro’l o’ynaydi. Chunki o’spirin biron kasbni egallashda tanlagan kasblariga juda katta e’tibor qaratadilar shu sohada o’zlarini tasavvur qiladilar.

Hunar va texnika malakalari 15 yoshdan boshlab juda yaxshi o’zlashtirila boshlaydi. Buning sababi shuki, bunday malakalarni hosil qilish uchun yetarli darajada o’sgantafakkur va tajribadan tashqari yana organizm va muskul sistemasining chiniqqan va yetarli darajada o’sgan bo’lishi shart. Kishi ulg’aygan sari unda malakalarning hamma turlari hosil bo’lishi mumkin. (3. 349)

O’spirinlik davridagi o’g’il bolalarga ota onalar tamonidan o’g’il bolalar yig’lamaydi degan gapni ishlatish noto’g’ri. O’zi bunday qonun yo’q. Farzandingizni kuchli qilaman deb o’ylayabsiz, lekin bu harakat bilan uni hamma yamon emotsiyalarini chiqarib yubormasdan, ichiga yutib yuborishga sabab

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. E.G'.G’oziyev "Psixologiya",–Toshkent.1994 y.
2. P.Ivanov,M,Zufarova "Umumiy psixologiya"– Toshkent.2008 y.
3. P.Kelder "Yosharish sirlari",–Toshkent.2011 y.
4. J.Majidov va G.Majidova(2020)Shaxs ijtimoiy taraqqiyotida oila muhitining o'rni.Arxiv.Научных Публикации.JSPI.
5. "Sog'lom avlod" gazetasi.2010 y.
6. O’Gilxontolibjonovna, V. (2023). AXBOROT MUHITI YOSHLAR IJTIMOYIY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISHNING METODIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.